

1925-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN

YOSHLAR OVOZI

№49 (16354) 2019-YIL 19-IYUN, CHORSHANBA

O'zbekiston yoshlar ittifoqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, adabiy-badiiy gazetasi

www.yoshlarovozi.uz

yoshlarovozi@mail.ru

@Yoshlarovozi

Сайтимизга уйлаш учун QR-кодини
телефонномиз ордам сканер киринг.

ПРЕЗИДЕНТ СОВФАСИ – “КОБАЛЬТ” АВТОМОБИЛИ ТОПШИРИЛДИ



Тошкент вилояти Бўка туманида Президентимиз томонидан илгари сурилган 5 та муҳим ташаббус доирасида маънавий-маърифий тадбир бўлиб ўтди.

Бўстон махалласида ўтказилган мазкур тадбирада Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси масъуллари, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси академиклари,

ёзувчи ва шоиорлар, элимиз аргодигаги санъаткорлар, бўқалик ёшлар, махалла фаоллари иштирок этди.

Жорий йилнинг 1 июнь куни Президентимиз Бўка туманидаги Бўстон

махалласига ташриф буориб, туманда 5 та муҳим ташаббус доирасида амалга оширилаётган ишлар билан танишган эди.

(Давоми 2-саҳифада).

> Yoshlar oyligi

Тиним билмас ташкилотчилар



Жиззах вилоятида Ёшлар ойлиги қизғин паллага кирди. Йирик ташаббус доирасида ёшларни ҳар томонлама қўллаб-кувватлаш, муаммоларни ҳал этиш, ижтимоий ҳимоялаш ва маънан рагбатлантиришга қаратилган кўплаб лойиҳалар амалга оширилмоқда.

Маълум бўлишича, эр-хотин ўзаро келимовчилик сабаб икки ёйдан бўён бирга яшамайтган экан. Ишчи гурухи аъзолари даставалада келининг уйига бориб, унинг ота-онаси билан сухбатлашиди. Вазият атрофича ўрганилиб, ёшлар ва куда-андалар ўртасида тушунтирини олиб борилиди. Охир-оқибат, икки томон яратширилди.

Кун давомида Фаллаоролдаги Кўкгумбаз ҳамда Зафарбод туманидаги Ёркин маҳаллалари ахли учун психологиялар иштирокида сайдёр кабул ўтказилиб, ажрим ёқасида турган учта оила ўтгариб олинди, бир канчасига малакали маслаҳатлар берилди.

(Давоми 2-саҳифада).

> Briefing



ДТМ: тизимдаги сўнгги ўзгаришлар

Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигига олий таълим уассасаларига қабул учун ўтказиладиган тест синовларига тайёргарлик ҳолати бўйича брефинг бўлиб ўтди.

Давлат тест маркази вакиллари ва журналистлар иштирокидаги брефинда тизимдаги ўзгариш ва янгиликлар тўргисида энг сўнгти маълумотлар берилди. 2019 йил қабул тест синовлари учун 180 мингдан ортиқ тест топшириклини шакллантириш режалаштирилган ва айни пайтда базанинг асосий қисми тайёр.

Тест синовларини ўтказиш учун ресублика бўйича 69 та бино ажратилган бўлиб, бир кунда 2 сенада 38 минг 310 нафар абитуриент тест топшириши мўлжалланган.

Тест топшириклари базасини шакллантириш бўйича Туркия, Жанубий Корея, Россия, Япония тажрибалари ўрганилиб, жорий йилдан янгилек сифатда тест топшириклида график, ёзувсиз карта, расмлар кўпланилади.

Давлат имтиҳонлари 25 юйдан бошланилди, 15-20 августга қадар давом этади.

Абитуриентларнинг вақтини мақсадида титул варагида белгиланни лозим бўлган ортиқа катаклар ҳам кисқартирилган. Давлат имтиҳонларида тарқатиладиган титул вараги олдин A5 форматда бўлса, бу йилдан A4 форматда чоп этилади.

Эслатиб ўтамиш, куни кечга Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарорига мувофиқ, 2019-2020 ўкув йилида Ўзбекистон Республикаси олий таълим муассасаларига давлат буюртмаси асосида ўзиша қабул қилишининг параметрлари тасдиқланди. Унга кўра бакалаврлар тайёрлаш бўйича:

кундузги таълим шаклига – 80 430 нафар, ўтган йилгига нисбатан 10 545 нафарга кўп;
сиркти таълим шаклига – 19 985 нафар (5 935 нафарга кўп);
кечки таълим шаклига – 1 985 нафар (735 нафарга кўп) талаба қабул қиласи.

Магистрлар тайёрлаш бўйича – 7 695 та (1 644 тага кўп) ўрин ажратилди.

Имтиҳонларнинг шаффоғлигини таъминлаш максадида тизимга тури ўзгартариш ва қўшимчалар кирилтмоқда. Бу эса муносиб ёшларни сарашаша хизмат қиласи.

Рўзиқул ОЧИЛОВ

> Yuksalish


“Рақамли авлод”нинг юриши

Эртамиз эгаларини замонавий ахборот технологиялари билан якиндан таништириш масадида Ёшлар иттифоқи “Digital Generation Uzbekistan” дастурини ишлаб чиқди. Лойиҳа Тошкент шахридаги Инха университети билан ҳамкорлидаги амалга оширилмоқда.

Иттифоқ матбуот хизматининг ҳабар беришича, куни кечга 90 нафар талаба ўкув ортомоҳига — Тошкент вилоятининг Бўстонлик туманинга жўнаб кетди.

“Ёшлар оғомтоҳи”да ракамил авлод вакилларини беш кунлик ўкув дастури кутмокда. Йигит-қизлар компьютер графикини, робототехника ҳамда медиа соҳаларининг стакни мутахассислари, таникли блогерлар билан учрашиб, интерфейс машгулотларга жайл килинади. Шу зайдда ҳар кайсан ўйналиши иштирокчисининг билим даражаси ва қобилияти аниланади.

Лойиҳанинг амалий қисми доирасида талабалар жамоатларга бўлинниб, тажрибали менторлар билан фикр алмашиш ҳамда



долзарб лойиҳалар устида ишлаб имконни кўлга киритади. Бунинг учун ортомоҳода барча шароитлар мухайёб этилган.

Якунда лойиҳалар тақдимоти бўлиб ўтади ва ҳар бир иштирокчи маҳсус сертификат билан тақдирланади.

Роҳатой ҚОДИРОВА

> Eshitdingizmi?

БУНАҚАСИ ҲАЛИ БЎЛМАГАН

Пойтахтимизда Инновациялар ва бошқарув ечимлари лабораторияси очилди. Янги лойиҳа Инновацион ривожланиш вазирлиги ҳамда БМТ Тараққиёт дастурининг Ўзбекистондаги ваколатхонаси ҳамкорлигига ишга туширилган.



А.ЯКУБОВ

— Мазкур лаборатория хорижибага асосланган холда давлатимиз бошқарув сектори учун энг мақбул инновацион гозларни саралаш, лойиҳа дарражасига етказиши ҳамда амалиётга жорий этиш бўйича муҳим платформа бўла олишига ишонаман, — таъқидади. Инновацион ривожланиш вазирлиги Иброни Абдураҳмонов. — Бу йўналиш биз учун хоизира янги. Шунга қарамай, инновацион экотизимија яратиш низаридан фойт ахамиятлидир.

— Ўтган йили вазирлик билан имзолangan ҳамкорлик меморандуми асосида лабораторияни ташкил этишга киришдик, — дейди БМТ Тараққиёт дастурининг юртимиздаги доимий вакили Матильда Димовска. — Шу чоккача у виртуал маконда фоилия кўрсатди. Киска фурсатда турли давлат органлари ҳамда жамоат ташкилотларидан маъмурий ислоҳотлар жараёнини жаддлаштиришга имкон берадиган 20 дан зиёд таклиф олини. Уларнинг ҳар бирис эксперлар гурухи томонидан атрофича ўрганиб чиқилмокда. Барзила жиддий тадқикотлар учун замин хозирлаши мумкин.

(Давоми 2-саҳифада).




Арт-терапия усулида тренинг

Бола улгаяр экан, унинг ўй-хаёлларида, руҳиятида ҳам бир мунча ўзгаришлар намоён бўла бошлияди. Бундай пайтда аксарият ёшлар яхши-ёмоннинг фарқига бормайди. Вазиятни ҳар томонлама ўрганиши ўрнига фақат бир томондан кўриб баҳолайди. Бу жараён кўп ҳолларда салбий оқибатларга олиб келади.

(Давоми 3-саҳифада).

> Murohaza



Бу ҳақда анчадан
бүён ёзмоқчи бўлиб
юардим. Бир неча бор
кўлумга қалам олган ва
компьютер қаршисиға
үтириб, ёзишга киришган
пайтларим ҳам бўлган.

Аммо юртимизда кечётган олам-
шумул жараёнлар, мадҳ этишига
арзигулни ютуқлар ва ҳали бу
кувончларга соя ташаб турган
муаммолар олдида ёзидиганим
“майдагап” дек туюлоб, охирга
етказмаган эдим. “Рост-да, шахар-
ларимизнинг у-бу ерида бир-ик-
кита шундай ёзув турса турибдида,
осмон узилип ерга тушармиди?”,
Ениятнаварларни ундовчи бу бе-
заклар сенга халақит беряптими?”,
деган ўй билан узинни инжиллик-
ка йўйган эдим. Лекин ҳар сафар
жуда ҳафса билан ишланган ва
ўрнатилган, кундуз кўёш нурида
жилолани, тунда чироқлари ёғу-
си билан ётибири тортадиган
шундай ёзувлар олдидан ўтсан,
томогимга нимадир тикилгандай
бўлаверади. Ниҳоят, ёзасам
бўлмаслигини тушундим. Албатта,
булар менинг шахсий фикрларим.
Мабодо, нотўғри ўйлаётган бўлсан,
мулоҳазаларим мухоммамага сабаб
бўлса, шу баҳона узин ҳам бимла-
ганиларимни билди, тушунмагана-
римни тушуниб оларман.

“I LOVE...”

Онаизоримиизга инглизча муҳаббат изҳори эмас, ўзбекона меҳр керак!



Бу нарсаға сизнинг ҳам кўзингиз тушган,
уни ҳозир пойтахтимиздан тортиб, барча
вилоят ва туман марказлари, хотто айрим
кагтарок қишлоқларда ҳам учратиш мумкин.
У “I love Uzbekistan”, “I love Tashkent”,
“I love Namangan”, “I love Khiva” каби ёзув-
лардир. Факат ихчамилкса интилибми ёки
хис-тўйгуларни бўрттириб кўрсатиб учун-
ми, “love” сўзининг ўриница “юрак” рамзи
кўйилган. Бир қарашда ҳеч бир юн жойи
йўқдек. “Мен сени севаман, ўзбекистон!”
(ундоп белгисини ўзимиз кўйдик, инглиз-
чида у йўк) дейилмоқда. Менимча, (дунё
кезги книпилар яхшироқ биладилар) ҳеч
бир мамлакатда ватаннаварларининг бун-
дай оташин изҳори учрамаса керак ёхуд
бошқа ҳалқлар ўз ватанларини бичалик
севмасмикланар!?

Биз эса она Ватанимизни шу кадар кучли
севамизки, буни баланд бинолар томиси хиёб-
онлардага одам бўйин кимматбахо пластик
шишалардан ясалган, ичига турға чироқлар
ўрнатилган, тунда ҳам назардан четда кол-
майдиган ҳафлар билан ёзб кўймасак бўл-
майди. Она Ватанимиз, яъни онаизоримиизга
нисбатан меҳр-муҳаббатимизни изҳор ки-
лишига она тилимиз оқизиклиб, инглиз
тилидан мадад сўраймиз: “Ай лав...”. Она
Ватанимизга куруқкина килиб, “Love” дей-
ишини ўзимизга ёз кўймай, “Битта жоним
бўлса, сенга фидо”, деган мъъодади, инкую-
луб “Love”нинг ўрини “юрак”нинг рамзини
кўймиз. Яна камига, меҳр-муҳаббатимизга
сиёсий тус бериб, юрак рамзининг ичига

давлатимиз байробини жойлаштирамиз.
“Мана, кўриб кўйинглар, хорижлик сай-
ёхлар, меҳмонлар, Ватанини севишни биздан
ўрганинглар!”, дегандек. Ватаннаварларик
бўлса, шунчалик бўлар-да! Кизик, нега шу
пайтга қадар Ватанимизга муҳаббат изҳор
килишинг бундай “халқаро” усулни ҳаёни-
зига келмади экан? Еки илгари бу қадар
севмасмидик юртимизни?

Юкорида андак иштибоҳ килганимиздек,
кимлардаги бу “жар солиш”га арзимайди-
гани ҳолатдек туюлини мумкин. Лекин биз
карниб ўтгиз ўйдан бўён миллий мазнавиятимиз
кайтусида яшашпиз, “оммавий мадданият”га
керши курашпиз. Аммо

ҳеч кандай маълумот йўқ экан (бу ҳам ушбу
рамз биз учун накадар бегоналигидан да-
лолат). Рус тилидаги сайтларда истаганин-
гизча маълумот олишининг мумкин, факат
талкинлар кўп. Унинг келиб чишини хотто
такалиши, Кадимиту дунё, Греция, Хиндустон ва бошта
давлатлар билан боғланниши, ўзида музкас-
сам этган маънолари ҳакида кўп маълумот-
лар берилган.

Шундайдан талкинлар орасида кенг таркал-
гани — юрак размига, айтиш ҳам нокути,
аёллар коматининг матъум кисми анда-
за килиб олинганига айтилади ёки яна бир
кўпроқ учрайдиган талкин икки оқиқуш-

, , АЁЛ ВА ЭРКАК ЎРТАСИДАГИ ОШИҚ-МАЪШУҚЛИК, “ВАЛЕНТИН
КУНИ”НИНГ АСОСИЙ БЕЛГИСИ ЭКАННИНИ БАЁН ЭТАДИ.
УЛАРНИНГ БИРОРТАСИДА ОТА-ОНАГА, ВАТАНГА НИСБАТАН ХИС
ЭТИЛАДИГАН БЕГУБОР ТҮЙГУЛАР ТИЛГА ОЛИНМАЙДИ.

инкор этмайликки, ҳали мактабнори нати-
жага эриши олганимиз йўқ — “оммавий мад-
даният” бизни ичдан ҳам, ташкаридан ҳам
тобора иштолиб. Сабаб? Сабаб шуки, биз “мулланинг жеттанини килу, кил-
ганини килма”, деган бемаъни ақидаға амал
килямиз. Буни орка-олидига ажнабий ёзув-
лар, миллий мадданиятимизга ёт суратлар
муҳрланган футболкларни ишлаб чиқарип
сотилғатни, маҳсулотларнинг телерекла-
маларида ҳам кўриш мумкин.

“Юрак”нинг рамзининг билмаган киши
бўлмаси керак (аслида, юракнинг шаки
унака эмаслигини хамма билади). Лекин
хамма уни севги рамзи сифатида таниди.
Бир вактлар ёшлигига кизларга “севги мак-
туби” битиг, охирда худди мурҳ каби шу
белгини — нағиза тенниб ўтган “юрак” рам-
зини кўймаган ўсмур йигит бўлмаса керак.
Аммо бу рамзининг тархи ва моҳиши билан
ҳеч ким чуқур кизиғизбўй кўрмаган. Шибун
ёзиш олдидан иккитишига тарханни
шуда маълумот кидириб кўдим. Юрак
нинг рамзи тўғрисида ўзбек тилида деяри

нинг ўзаро бакамти тургани тўғрисида-
дир. Бундайдан ташкири, яна ўнлаб талкинлар
борки узарнинг барни ёзган ўртаси-
даги ошиқ-маъшуклик, “Валентин куни”-
нинг асосий белгиси эканини баён этади.
Уларнинг бирортасида ота-онага, Ватанга нисбатан хис
этиладиган беғубор тўйгулар тилга олинмайди.

Хўш, биз нега мукаддас тўйгуларимиз-
ни бутун дунёга мазмунан интиб бўёқка
егалиги билан танилган рамзга коришти-
римиз? Колаверса, Ватанини севишими-
зан баланд бинолар пештокига, хиёбонларга
ёзиб кўз-кўз килишимиз мингна эмасми?
Хўй, майли, агар шу зарур бўлса, нега уни
инглиз тилида ёзишимиз, ажнабий тил-
да изҳор килишимиз керак?! Кайси ўзбек
онаизорига меҳр-муҳаббатини шу тархи
изҳор килилади?

“Юрак” размининг ичига давлат байроби-
ни жойлаштириб кўйини нимаси?! Ахир,
“Ўзбекистон” Республикасининг Давлат

байробиги тўғрисида “га” конунда байробимиз
кандай бичимда бўлиши, ундан қаҷон, қаерда,
кандай максадларда, канча баландликда,
неча даражада киляклида ўрнатиб фойдала-
ниши коидалари белгилаб кўйилган-ку?!
Бу нима, билмасликни ёписидан кимаслики?
Юкорида андак иштибоҳ килганимиздек, бугун юрти-
мизнинг кай туманинг шахарига борман;
шундай беҳазларга кўзингиз тушади. Ана
шу ёзувларни кимматбахо материаллардан
тайёрлассига сарфланетган миллионлаб
маблагни контракт пулни тўлмолмагани
учун ўқишидан хайдалиши арафасида турган
бир иктидори талабага берилса ёки кўчили-
ликка нағи тегадиган бирор хайдри ишга
сарфланса, яхши эмасми? Асл ватаннавар-
ларни шу аслида.

“Яна билмадим, бирорва тухмат ки-
лиш гуно...”, дейди “Шум бола” асари
қаҳрамони Қоравод. Мен ҳам шундай,
бу ётироzlарим ноҳақидар, эхтимол, яна
билмадим. Икки илгича аввали, “Бизни афв
эттагиз, Навоий бобо!” сарлавҳали мако-
ламизда шахар кўчалари ажнабий номлар,

шундай ёзувлар билан бежалаётгани ҳакида му-
лоҳаза билдириган эдик, бирор парво ҳам
кильмади. На ҳокимликлар, на мавнавият
тарғиботчилари ва на бошча бирор мута-
садди ташкил...

Балки, “I love...” ҳам шундай изсиз ке-
тар. Мен эса онажонимни жимига се-
виб, меҳр-муҳаббатини охорини тўкмасдан
яшайвераман. Ўзбекчисига яхши кўравера-
ман. Чунки мен ўзбекман! Ватанин менинг
инглизыча “I love...” имга мухтоҳ эмас!

Акромжон САТТОРОВ,
ЎЗА мухбари

> Jarayon

Меҳнат — ҳимоя остида!

Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари
вазирлиги раҳбари ва мутасаддилари иштирокида “Ўзбекистон-
даги меҳнат бозори ҳолати, мажбурий меҳнат ва меҳнат мигра-
цияси тизими” мавзусида очиқ мулоқот бўлиб ўтди.

Бандлик ва меҳнат муносабатлари
вазирлиги Шерзод Кубаев тизимида
ютиқ ва камчилликлар ҳакида гапиди.
Унинг таъкидлашича, мамлакатимизда
мехнат яроқи билан 19 милион
акхондинг 1 миллион 400 минг
нафари ишпиз фуқаролардир.



Ўзбекистон Республикаси
Бандлик ва меҳнат муносабатлари
вазирлиги ҳолатини аниқлашади.

13 минг 264 та корхонада
мехнат ҳукуқлари билан боғлиқ
55 минг 282 та конунгузарзарлик ҳолатини аниқлашади.
Уларни бартараф этиш бўйича 9 минг 580 та ёзма кўрсатма ва
889 та тақдимнома кирилди.

8 минг 914 нафар мансабдор шахсга нисбатан
4614,3 миллион сўм микардири жарим
маъмурий жарима кўйилди.

Конунгузарларнинг катта қисми меҳнатни муҳофаза
килиш конунгузарлиги ва техника
хавфисиги қоидаларига амал қилмаслик (29 минг 202)
ва меҳнат шартномасини тузмасдан
ходимлар мажбурий меҳнатидан
норасими фойдаланиши (4 минг 729)га тўғри келади.

АРТ-ТЕРАПИЯ УСУЛИДА ТРЕНИНИГ



(Бошланиши 1-саҳифада).

Ноҳуш холатларни олдини олиш, ўғил-қизларга психология
ёрдам бериши учун ёзлар ойлиги доирасидаги “Ёшларга ижтимо-
ий-психологик хизмат кўрсатни маркази” нодавлат нотижорат
ташкилоти ҳамда Иттифоқнинг Тошкент вилояти кенгига билан
хамкорликда “Вояж етмаганлар орасида ҳукукбузарларининг
олдини олиш бўлими” (ВЕОХООБ) профилактик хисобда турган
ёзлар билан ишлаш максадида психология-реабилитация лой-
хаси” доирасида тренинглар ташкили этилди.

Чирчик ёзлар марказидаги тренингларга 100 нафар ёш жал-
телиб, 5 гурухга ажратган холда арт-терапия усулни кўйлади.

Хориж психологларнинг тажрибасидан маълум, тарбияни
оғир болаларда арт-терапия усулидан фойдаланганда холда тре-
нинг ўтказши стрессни ёнгиг ўтишида самара беради. Тренинг-
ларда ёзлар ўтказшида ташкиллашади ва психо-коррекцион ишлар
амалга оширилди.

Ота-оналарнинг “Шу ишни ҳам эплай олмадинг, қанака
босасан-а?” каби гап-сўзларни фарзандидаги ўзига ишончининг
йўқолишига сабаб бўлади, — дейди ёзларга ижтимоий-психо-
логик хизмат кўрсатни маркази директори Дилғуз Шодиева.
Натижада боладаги бор қобилият ҳам аста-секин
сўнади. Бундайдан пайтда психология ёзларга ишончи
холатларни олиши ютгари. Бу усол ота-она ва фарзанд олди-
надига ўтказшида ташкиллашади.

Бу каби тренингларни Тошкент шахри, Жиззах, Сирдарё
вилоятиларда давом этириб, 400 нафар вояга етмаган, иччи
ишилар бўлими хисобда турган ёзларни камраб олиш режа-
га кирилтилган.

Карим ЗАРИПОВ

Маймуна ХЎЖАҚУЛОВА

> Achchiqtosh

Адабиёт тижорати?

Китоб дўконларини айланниб, ўйга толаман: расталар
турфа адабиётларга тўла-ю, аммо инсоннинг маънавий
эҳтиёжини қондирадиганлари оз. Ношилару дўкондор-
лар бизнесда зўр бериб, маънавият ҳакида унтиб юбор-
гандек, гўё.

Буғунги китобхон яхши асрарларга ташна. Афсус, таклиф
талаға



Saboq

U XIZMATIGA HAQ OLMAYDI

Maktabga ketayotgan jiyanimga: "Tenzroq yursangchi!", dedim. U bamaylixotir qadam tashlar ekan: "Shoshilayotganim yo'q, seki-in boraveraman-da, oqa", deb javob berdi. "Temurbeklar" harbiy-ixtisoslashtirilgan maktabida o'qiyotgan jiyanimga hozirdan harby hayotga moslashib borish kerakligini aytdim. U gapimni eshitmagandek yo'lida davom etdi.

Song unga:

— Hozir senga kitob o'qib beraman, — dedim. Kitob, dars tayyorlashdan ko'ra, telefon-u televizorning ashadiy ishqibozi bo'lgan jiyam sergak tortdi:

— Qani, kitobingiz yo'q-ku, — dedi.

Unga qo'llimdag'i "Tafakkur" jiyanimi ko'rsatdim. U peshansinari tirishtirdi. Jiyanimga kitob o'qish haqidagi gap boshlashim bilan gapimni eshitmagandek yo'lida davom etdi.

— Bilaman, o'qish kerak. Lekin boshni o'ritadi-de...

— Nega boshni og'ritarkan? Bilsang, dunyoda yolg'iz KITOByina undan olganining evaziga hech narsa talab qilmaydi. Eng beinnomat do'st bu.

— Yo'g'a-a, faqat kitobmasdir, oqa...

— Mengen ayt-chi: yana nima yoki kim yordan bergani uchun haq olmaydi? Bitta misol, telefonni oladigan bo'sis, uni vaqtini vaqt bilan quvvatlash kerak. Birovga qo'ng'iroq qilmoqchi bo'lsang, hisobini to'dirish shart. Televizor elektr toki bilan ishlaysid...

Jiyanim ozgini yon bergandek boshini qimirlatib qo'yiganidan ilhomlanib, so'zlay boshladim:

— Ko'rdingmi, bu dunyoda foydalanayotgan har bi yurumyngan qilgan xizmati uchun "haq so'raydi". Birgina KITOByi quvvatlash ham, vaqt-vaqt bilan pul to'lab, turish ham kerak emas. To'g'ri, bir kun uning jildlari eskirib, sahifalar buklanib qolishi mumkin, lekin undan



olganlaring xotirangda saqlanib qoladi! Haqiqiy boylik — ilm. Boy odam bilimsiz bo'lsa, boyligini bir zunda yo'qotishi hech gap emas. Ammo bilim olishti qanchaq inson garchi u qashshoq bo'lsa ham, aqil ishlisit boyib ketishi hech gap emas. Yaxshi o'qisang, maktabni bitirach, biling bilan universitetga o'qishga kirasan. Keyin u yerda ham ustozlar o'rgatgan, kitoblarda yozilgan barcha bilimni o'zlashtirasan. A'lochi talaba sifatida o'qishni bitirach, senga turli kompaniyalar, nufuzli tashkilotlardan takliflar boshlaydi: "Bizda ishlash! Bizga sizdek yetuk mutaxassis, malakal kadr kerak!". O'zingga ma'qul biron joyga ishqga kirasan. An undan keyin, ukaqinam, bilimlarning asosida zo'r ishlami qilasan: foydali shartnomalar, hamkorliklar, buyuk kashfiy va ixtiolar ham qilarсан, balki.

"Nursaid To'yechivech, siz bizga ulkan yutuqlar olib keldingiz! (Jiyanim ismini bunday yo'sinda aytganimdan hayrati oshdimi yoki o'ziga ishonchi kuchaydimi, menga yalt etib qaradi). Rahmat sizga! Siz bilan ishlayotganimiz biz uchun muvaffaqiyati bo'ldi! Bu bizga faqat g'alaba va yuksak istiqbollar olib keladi!", deydi kompaniya boshligi.

"Jaraq-jaraq" maoshni sanab olganingga, yana da shioq bilan harakat qilasan. Tag'in mo'may daromad topasan. Hayotning farovon, bo'lib maza qilib yashaysan. Keyin bir kun o'tmishingga nazar solsang, barcha yutuqlaring, erishilgan ulkan maralar bo'lsang, hisobini to'ldirish shart. Televizor elektr toki bilan ishlaysid...

Doim telefon va televizor o'miga kitob bilan ko'proq hamroh bo'lishni uqtirganimda jahli chiqadigan jiyanimni bu safar ijobjiy taassurot bilan maktaboga kuzatganidan boshim osmonda edi. Ayni damda jiyanimning katta va yorug' yo'l sari yuz tutgani shubham yo'q edi.


Dilruh ISOMIDDINOVA,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
jurnalist

O'qing, bu qiziq!

Yer sharining ba'zi nuqtalarida osmon kunduz kuni ham niyoyatda to'q bo'lib ko'ri-nadi. Negaligini tushuntirib beramiz.

Atmosfera gaz molekulalari, suv tomchilari va changdon iborat. Havorang yorug'lik nurlari atrofqa kislrorod molekulalari ta'sirida tarqaladi. Shbu bois Quyosh charaqlab turganida samo moviy tusga kiradi.

Chang va suv zarralar esa istalgan rangdagi yorug'lik nurlarini sochish xususiyatiga ega. Havo tarkibida bunday zarralar qanchalik ko'p bo'lsa, osmon shu qadar yorqinlashadi. Kamayganda, aksincha, qorong'ilashib boradi. Bunday holatni kislrorod yetishmaydigan yoki umuman mavjud bo'lmagan hududlar, masalan, tog' cho'qqilari hamda kosmosda kuzatish mumkin.



QORA (Q)ALAM QARSHISIDA

O'zimcha uch-to'rt satr qoralab, adabiyot eshigini qoqdirm. Natija bo'lmadi — yozganlarimni hech bir gazeta chiqaray demadi. Bu bo'stondan ko'nglim qolib, yo'limni boshqa tomonga bursam, deb o'ylab turganda, ichki bir kuch meni yana bir bor urinib ko'rishga undadi.

Ko'zingma ko'ringan ilk insonning nuqsonini topib, "changini chiqarib" tanqid qildim. Avval to'rt satrning el'on qilinishini oylab kutgandim, buni qarangki, tanqid ikki kun deganda viloyat gazetasida bosildi. Nuqtasini topib zarba berman ekanman shekilli, "mahallada duvvuq gap" bo'ldi. Bu muvaffaqiyat maktab o'quvchisiga biroz og'irlik ham qilar

ekan. Yana qalam haqi ham to'lashdi! Ana yutuq'-u, mana yutuq'!

Ilhom daraxtim gulga kirdi, hosil ham bera boshladim. Qalamimi yozishdan, muharrirlar uni bosishdan charchashmaydi endi. Atrofqa babra olish uchun emas, ko'rganimidan kamchilik topish uchun ham sinchiklab qarayman. Hatto otanom, o'qituvchilaridan ham ayb topadigan bo'ldim. Ularga azbaroyi "humratim baland"ligidan ismlarni o'zgartirib yozaman...

Yillar o'tgach, qilgan mehnatin tufayli men bilan ko'rishganda atrofdagilarning qo'llari ko'ksida bo'ldi. Qalamim, qadamim sabab yuqori joyga ishga olindim. Vazifam og'ir emas. Ular ko'rsatgan nuqtalar "kaltaklasam" kifoya. Bu o'zimga zavq bergenidan har gal kutganlaridan-da ortiq tanqid qilaman.

Tengdoshlaridan ko'ra kech oila qurdim. Baxt qo'ng'omiz uzoqqa boradi. Ishni deb ayolimning kulishi-yu so'zlarini, yolg'iz o'g'limning erkali, "dada" deb quchoqlashimi kamchilik si-



Bugunning gapi

ISHLAMAGAN TISHLAYDI(MI?)

Ko'zingiz tushgandir, pensiya beriladigan kunlar mahalla guzari har qachongidan gavjum bo'ladı. Ha, keksalar pensiya olish uchun navbatda turishadi. Ular orasida men ham bo'laman. Kimdir bir siqim, kimdir bir xalta pul olganini ko'raman.

Ba'zan navbatda turganimizda pensiya miqdori haqida subbatlashamiz. Ayrimlar maoshi kam, lekin tushumi bor joylarda ishlagan uchun pensiya oz ekan. Ayrimlari navqiron vaqtida yollanma ish bilan shug'ullangan (ilgari ham yollanma mehnatga ko'p va naqd bo'lib to'anardi), keyin amal-taqal qilib 25 yillik mehnat stajini to'ldirgan, ular ham kam pensiya oladi.

O'zim oliy o'quv yurtining kechki bo'limida o'qiganim uchun mehnat faoliyatimiz erta boshlaganman va o'zimni o'zim mablag' bilan ta'minlashim keراكligini aniq bilgaman. Har kuni ertalab soat to'qqizda ishga yetib borish oson bo'lmagan. Yoki navbatchilikda gazetaning yangi chiqqan soniga imzo chekish uchun tonggacha kutganimida maza qilganman, deya olmayman. Bu og'iz ishlami tuz bergan joyga azbaroyi hurmatim va mehnat stajini uchun sadogat bilan bajarganman. 60 yoshimda 40 yildan ortiq mehnat stajini bilan pensiya chiqidagi. Ya ni qo'shimcha 15 yillik mehnat stajini uchun ustama belgilanadi. Mehnat faoliyatim davrida boshqa gaze-

ta, jurnal va to'plamlarga ham maqlolar yozib turdim. Ulardan olgan gonorlarim pensiyamning boshlang'ich miqdorini belgilashda hisobga olindi va 15 yillik mehnat stajini uchun beriladigan mablag' mos ravishda oshdi. Hozir olayotgan pensiyamdan nolimiyman va uning ortida 40 yillik mehnat stajini borilgini bilaman.

Hozirgi kunda yoshlar davlat muassasalarida yoki yuridik maqomga ega firma, tashkilotlarda kamroq maoshga bo'lsa ham qanoat qilib, mehnat stajini oshirish uchun ishlaysaptimi? Yoshlariga hozirdan mehnat stajining va qonumi daro-madingizni ko'paytirishga harakat qiling deyapmizmi? Afusuki, quvvat borida pul yig', deyindigan bo'proq. Quvvat borida mablag' yig'ish kerak, faqat bu mehnat stajini oshishi evaziga bo'lsa, yana da yaxshi. Chunki quvvat yillar o'tgan sayin insonnini tark etaveradi.

To'g'ri, fermer xo'jaligidagi ishlagandan ko'ra, tayyor meva va sabzavotni ulgurji xarid qilib, bozorda sotsangiz, mo'may pul topazis. Davlat muassasasida ertadan keechgacha ishlagandan ko'ra do'kondoraga ko'maklashsangiz, ko'proq daromad qilasiz. Biroq ularning hech biri mehnat stajini yozilmaydi. Vaqt esa o'taveradi, siz ham bir kun pensiya yoshiga yetib borasiz. O'shanda necha yillik mehnat stajining bo'ladи, necha so'm bilan pensiya chiqasiz? Buni hozirdan o'yashlingiz kerak.

Mehnat staji — kelajagingiz kafolati. Vaqt keilib, pensiya olishga borganingizda bir siqim emas, bir xalta pul bilan qaytayotganingizda mehnatlarining rohatini tuyasiz. Sizing shunday baxtiyor kunga yetishingizga tilakdoshman.

Asror MO'MIN,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan
jurnalist

So'nggi suhbat

Kechqurun opam telefon qildi.

— Uxlamannamid, shu payt sen bilan juda gaplashgim keldi. O'tgan hafta birrovga kelding-u ketding.

Opa-singil allamahalgacha ota-onalarimiz, shodon bolaligimizni eslab, uzoq subbatlashshidi.

— Yaqinda bermorlikdan turingiz, urintirib qo'yamay, opajon, — dedim uni yahab.

— Bo'pti, yaxshi dam ol. Peshanangni tut, o'pib qo'yay.

Opam Vodiya turib poytaxtdagi jigarini "o'pit qo'ydi".

Nahorda opaginamning qazosi haqida sovuq xabar keldi...

Nasiba ABDULLAYEVA

fatiда ko'ra boshladim. Buni ham tanqid tayog'im ostiga oldim. Men anglagan baxt oilidan ko'ra kasbimdagagi yutuqlar edi.

O'shanda negadir keksayish haqida o'yalamagan ekanman. Hayot shamoli qadidimi eggach, suyanadiganim mana shu tayoq, xolos. O'tkazgan vaqtimni umr deb aytolmayman. Xuddi hovuzda yashagan-dekman. Atrofim to'la shishirilgan pufaklar. Qo'llar ishora qiladi — "Bu pufakni cho'ktir!". Zavqlanib, bor kuchim bilan sun ostiga bosaman.

— Mana cho'kdi!

— Endi narigisini.

— Xo'p bo'ladи!

— Barakalla! Uchinchisi ana... To'rtinchisi qolmasin.

— ...

— Keyingisi!


Men vazifani a'lo bajaryapman deb yuraveribman-u, pufaklardan birini cho'ktirib, ikkinchisiga o'tganimda biringchisi allaqachona suv zuysigasi chiqib bo'lganini payqamapman...

Qo'limdagi HASSA ham QALAMimaga o'xshaydi — ortiga boqsoqam, har qadam qo'yganimda izmidza bittadan QORA NUQTA qoldirgan...

KENJA O'G'IL

Sayohat

BAXMAL TOG'LARI



Baxmal tog'lariiga sayohat uyuştilirish ishtiyogi bizda hamma narsadan ustun turardi. Nihoyat orziqib kutilgan onlar kelib, kollej talabalari bilan tog' yonbag'riga yo'l oldik. Manzilga yetib kelganimizda havoning tozaligidan ko'ngillar yayrab ketdi. Yomg'irdan so'ng hayot yanada jonlangandek, yangilangandek edi. Gullar borliqni iforga burkadi.

Cho'qqilar tik qoyalardan iborat. Shuning uchun avtoulovlaridan tushib, yayov yurishimizga to'g'ri keldi. Balandga ko'tarilish tinka-madorni quritadi. Pastda toshdan-toshga bosh urib, anhor shovullaydi. Chor-atrofli gullar chamani bilan qoplangan qishloq boshladidi. Bu manzarami tomosha qilarkamiz, taassurotlarimiz yana nuda boyidi. Ular haq qanday tabiat shaydosini o'ziga maftun etadi. Bunday antiqa manzaralarni viloyatimizning boshqa tumanlarida da ham uchratish mumkin. Ularни asrab-avaylab, kelgusi avlodlarga yetkazmog' imiz lozim.

Xullas, bir kunlik sayohatdan tibbiyot kolleji o'quvchilarini boy taassurot oldi. Musafivo havo har qadamda bizni ruhlantirib turdi, charchoq nimaligini bilmadi. Sayohatdan so'ng tarixiymajmua, antiqa toshlar bir topilmalarini asrash, ularga ziyan yetkazmasligimiz lozimligini yana bir bor yodga olish uchun safar taassurotlari bo'yicha ijodiy ishlar tanlovini e'lon qildik.

Go'zal ERGASHEVA,
Beginqul RAHMATOV,
G'allaorol tibbiyot kolleji
o'qituvchilar

1 savolga 1 javob

— Erim bilan ajrashganman. Aliment miqdori juda kam. Xarajatlarni qoplamaydi. Farzandim uchun qo'shimcha pul olishim mumkinmi?

Anonim savol



Savolga gazetamizning doimiy eksperti, huquqshunos Javohir SHAMSUDDINOV javob beradi:

— Mumkin. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi 103-moddasida bolalarning ta'minoti uchun qilinadigan qo'shimcha xarajatlari taribi belgilab berilgan. Shunga muvofigi, ota-ona qavfoludda holat (bolaning og'ir shikastani, kasal bo'lishi va boshqa)lar tufayli kelib chiqqan bolanigan ta'minoti uchun zarur bo'lgan qo'shimcha xarajatlarda ishtirok etishi shart.

Qo'shim